

2020

TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: CURRENT TRENDS AND NATIONAL PRIORITIES

Abduvali Isadjanov

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN, a.isadjanov@iiau.uz

Gulmuratov Ilyos

International islamic academy of Uzbekistan, ilyosbek.g@umail.uz

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau>



Part of the [Classical Literature and Philology Commons](#), [Islamic Studies Commons](#), and the [Religious Thought, Theology and Philosophy of Religion Commons](#)

Recommended Citation

Isadjanov, Abduvali and Ilyos, Gulmuratov (2020) "TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: CURRENT TRENDS AND NATIONAL PRIORITIES," *The Light of Islam*: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article 27.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss1/27>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in The Light of Islam by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

Abduvali ISADJANOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN
*Doctor of Science in Economics, Associate professor,
Department of Islamic Economics and Finance,
Ziyarah tourism),
E-mail: isadjanov@inbox.ru*

Ilyos GULMURATOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN,
*Tourism (pilgrimage tourism) specialty.
master's degree student 2nd year
ilyosbek.g@umail.uz*

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA MILLIY USTUVORLIKLAR

РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПРИОРИТЕТЫ

TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: CURRENT TRENDS AND NATIONAL PRIORITIES

Kalit so'zlar: *turizm, chiqish turizmi, ichki turizm, viza rejimini soddalashtirish, shahar sayohati, halol turizm, ziyorat turizmi, infratuzilma.*

Ключевые слова: *туризм, выездной туризм, внутренний туризм, упрощение визового режима, городские путешествия, халяль туризм, пилигрим туризм, инфраструктура.*

Keywords: *tourism, outbound tourism, domestic tourism, visa regime simplification, urban travel, halal tourism, pilgrim tourism, infrastructure.*

Kirish. Turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar-ning fikriga ko'ra, turizm XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa ko'ra xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviy-lashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni shakillantirishga xizmat qiladi.

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o'zaro munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o'sishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda o'zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar turizmni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqdalar.

Mavzuning dolzarbligi. Turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanmoqda. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa ko'ra xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi.

Ilmiy mavzuning qo'yilishi. turizmining jahon iqtidodiyotida tutgan roli; mintaqalar bo'yicha chiqish turizmning rivojlanish xususiyatlari; kirish turizmi rivojlangan mintaqalar; turizm rivojlangan mamlakatlar; zamonaviy turizm bozoridagi tendensiyalar va boshqa jihatlarni yoritish vaziflari qo'yilgan.

Tadqiqot maqsadi. Mavzuning maqsadi jahon turizmining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish orqali O'zbekistonda turizmning rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- turizmining jahon iqtidodiyotida tutgan rolini o'rganish;
- mintaqalar bo'yicha chiqish turizmning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
- rivojlangan mintaqalarning kirish turizmi xususiyatlarini aniqlash;
- yuqori darajada turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, yutuqlari va muammolari, rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqish;
- zamonaviy turizm bozorining yangi yo'nalishlarini va rivojlanish tendensiyalarni tahlil qilish;
- jahon tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston turizm sohasida olib borilayotgan islohotlarni tahlil etish va tizimli rivojlanishning kompleks chora-tadbirlarini asoslab berish.

Qo'lanilgan uslublar. Tizimli tahlil va kompleksli yondashuv.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada jahon iqtisodiyotida turizmning ahamiyati to'g'risidagi xorijiy jurnal, maqola, ilmiy to'plam va nufuzli tashkilotlarning yillik hisobotlaridan: World Travel

Turizm sohasining zamonaviy iqtisodiyotda, yangi ishchi o‘rinlarni va kichik biznesni rivojlantirishdagi o‘rniga alohida e‘tibor qaratilgan. Jahon iqtisodiyoti, mintaqalar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm sohasining rivojlanishining zamonaviy tendeyviyalari tahlil qilingan. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, shu jumladan, transport logistikasini, infratuzulmasini, mehmonxonalarni rivojlantirish, viza protseduralari soddalashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Maqolada turizmning global, mintaqaviy hamda milliy rivojlanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy turizm bozori, jumladan, shahar sayohatlari, halol turizmi va boshqa turistik yo‘nalishlarning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari yoritilgan, shu jumladan, shahar sayohati, halol turizm, ziyorat turizmiva boshqalar. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari hamda istiqbollari tadqiq etilgan.

Значительное внимание уделено роли туризма в структуре современной экономики, в создании новых рабочих мест и развитии малого бизнеса. Проведен анализ современных тенденций развития сферы туризма в мировой экономике и отдельных регионах, развитых и развивающихся стран. В статье рассматриваются глобальные, региональные и национальные особенности развития туризма отдельных стран, современные тенденции и перспективы развития туристических рынков, включая городской туризм, халяльный туризм и другие туристические направления. Особое внимания уделено возможностям и перспективам развития туризма в Узбекистане, приоритетным направлениям развития туризма в Узбекистане, мерам по стимулированию его развития, включая меры по совершенствованию транспортной логистики, инфраструктуры, развитию сети гостиниц, упрощения процедуры оформления туристических виз.

Considerable attention is paid to the role of tourism in the structure of the modern economy, in creating new jobs and developing small businesses. The analysis of current trends in the development of tourism in the world economy and certain regions, developed and developing countries. Special attention is paid to priority areas of tourism development in Uzbekistan, measures to stimulate its development, including measures to improve transport logistics, infrastructure, develop a network of hotels, and simplify the procedure for issuing tourist visas. The article reviews global, regional and national tourism development in some countries. The trends and prospects for the development of modern tourism markets including urban travel, halal tourism and other tourism destinations are covered. Opportunities and perspectives of tourism development in Uzbekistan were also studied based on the experience of foreign countries.

Trends 2018/2019; Travel & Tourism Economic Impact 2019; UNWTO barometer 2018 – World Tourism Organization (UNWTO); Global Muslim Travel Index 2018; Travel & Tourism Economic Impact 2018 Uzbekistan va European Tourism in 2018: Trends & Prospects (Q4/2018) foydalanilgan hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlar I.S. Tuxliev, G‘.H. Qudratov va M.K. Pardaev[2010]., B.Safarov[2017], Sh.R., Ruziyev [2018]., A.A. Xudoyorovlarning [2019].

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o‘zaro munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o‘shishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda o‘zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirmoqda. Shuning uchun, ko‘pgina davlatlar va tadbirkorlar turizmning rivojlanishi uchun katta e‘tibor bermoqdalar.

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Turizmning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta‘siri valyuta

tushumi, ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, madaniyat va qadryatlarni saqlashda ko‘rinadi.

Shu boisdan O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish uchun alohida e‘tibor qaratilib, qator islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar o‘zbek turizmning rivojlanishida eng muhim qadamlardan bo‘lmoqda. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan, 2017–2021 yy. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish belgilandi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga murojaatnomasida “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va

ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan", – deb takidlagan edi[4]. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda O'zbekistonga 5.34 million nafar turist tashrif buyirgan. 2017 yilda ularning soni 2,69 mln nafarni tashkil etgan, ya'ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o'sishni ko'rsatib, ikki baravarga oshgan. 2016 yilda esa ularning soni 2,07 million nafarni qayd etgan. O'tgan yil davomida 9 mamlakat uchun vizasiz rejim e'lon qilinib, fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza rejimi qo'llanuvchi mamlakatlar soni 12 tadan 50 taga oshdi. 2018 yilning 15 iyulidan elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi ishlay boshladi [Uzbektourism, 2019].

Turizm iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash hamda turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash uchun 2019-yil 5-yanvarda 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, hamda 2019-yil 18-iyul kuni "Turizm to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilindi [3].

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda istiqbolli hamda serdaromad sektorlar ulushini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish, ishsizlikni kamaytirish va xalqaro hamjamiyat bilan iqtisodiy aloqalarni yaxshilash uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'zbek turizmini rivojlantirish bugunning dolzarb masalasiga aylangan.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda birinchi galda jahon turistik bozor konyukturasini o'rganish, uni tahlil qilish, jahon turistik bozorida munosib o'rin egallash uchun raqobatbardosh turistik xizmatlarni yaratish, o'zbek turizmi jozibadorligini dunyoga namoish etish va turizmdan olinadigan daromadlarni maksimalashtirish muhimdir.

Turizmining jahon iqtidodiyotida tutgan roli. Bugungi kunda dunyo miqyosida turizm iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, dunyo mamlakatlari ijtimoiy iqtisodiy farovonligini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Butunjahon turistik

tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 2018 yilda turizmning jahon YaIMdagi ulushi 8,8 trillion AQSH dollariga, ya'ni YaIMning 10.4 %iga, shuningdek, umumiy eksportning 1,5 trillion AQSH dollari ya'ni 6.5 foiziga (bu umumiy xizmatlar eksportining 27.2 foizi demakdir) va 319 million ish o'rni (har 10 tadan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi.

So'nggi besh yil ichida barcha global ish o'rinlarining 5 tadan bittasi aynan turizm sohasida yaratilgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, keyingi 10 yil ichida dunyo bo'yicha turizm sohasida 100 million qo'shimcha ish joylari yaratilishi kutilmoqda. Bu keyingi o'n yillikda har to'rtta yangi ish joyidan bittasi turizm sektori tomonidan yaratilishini anglatadi. Turizm sohasidagi ishlar ayniqsa ayollar, yoshlar va boshqa jamiyatning cheklangan qatlamlari bandligini oshirishga xizmat qiladi. Turizm iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lgan mamlakatlarda ish o'rinlarini yaratishda asosiy manba sifatida qaralmoqda. Gretsiyada yaratilgan barcha yangi ish o'rinlarining 71foizi, Portugaliyada 60% va BAAda 47 foizi manashu sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilda xalqaro turistlar soni 1,4 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkich 2027 yilga kelib 2 mlr kishidan ortiq bo'lishi kutilmoqda [Travel & Tourism Economic Impact 2018 Uzbekistan]. Hozirda turizm 2018 yilda 3.9 foiz o'sish bilan dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan ikkinchi sektor (ishlab chiqarish sanoati 4,0 foiz o'sgan) hisoblanadi. Undan keyingi o'rinlarda sog'liqni saqlash (+ 3.1%), axborot texnologiyalari (+ 1.7%) va moliyaviy xizmatlar (+ 1.7 foiz) sektorlari o'rin egalladi. 2018 yilda o'rtacha global iqtisodiy o'sish 3.2 foiz bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich turizm sohasida undan yuqori o'sishni qayd etdi [Travel & Tourism Economic Impact 2019: 1].

Turizm turar joy va transportdan tortib oziq-ovqat, chakana savdo, madaniyat, sport va dam olishgacha bo'lgan sohalardagi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga va dunyo bo'ylab an'anaga aylangan bayramlarini nishonlashga xizmat qiladi.

Mintaqlar bo'yicha chiqish turizmining rivojlanish xususiyatlari. Jahon turistik bozorida rivojlangan mamlakatlar turistlarining ulushi katta hisoblanadi. Chunki turizm avvalo yuqori daromadga bog'liq bo'lib, turmush darajasi rivojlangan mamlakatlar aholisi ko'proq sayohat qilishni avzal ko'rishadi. Bu o'z navbatida mamlakatda chet elga sayohatlarini ya'ni chiqish turizmini rivojlantiradi.

Turistlarning sayohat qilish maqsadi turlicha bo'lib, bugungi kunda ananaviy tarmoqlar bilan birga zamonaviy turistik yo'nalishlari ham rivojlanib

bormoqda. Yangi turistik manzillarining ko'payishi turistlar oqimining tez-tez o'zgarib turishiga olib kelmoqda.

2018 yilning dastlabki sakkiz oyi ichida dunyo miqyosidagi sayyohlar hajmi 6 foiz o'sishi bilan, jahon turizm industriyasi o'z tarixida yuqori o'sish suratlari bilan o'rin oldi. An'anaviy turistik yo'nalishlarida turistlar sonining ortib borishi bilan birga yangi turistik yo'nalishlarning ham rivojlanib borayotganini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

2018 yil yanvar avgust oylarida turizmning turlari bo'yicha rivojlanishi, % da

Yanvar - 2018 yil avgust	Global	Yevropa	Osiyo-Tinch okeani	Shimoliy Amerika	Lotin Amerika
Jami tashqi sayohatlar	+ 6%	+ 5%	+ 8%	+ 4%	+ 8%
Dam olish uchun sayohatlar	+ 7%	+ 6%	+ 10%	+ 4%	+ 10%
Shahar sayohatlari	+ 8%	+ 6%	+ 10%	+ 4%	+ 18%
Plyaj sayohati	+ 10%	+ 8%	+ 15%	+ 3%	+ 15%
Turistik sayohatlar (shahar tashqarisiga)	+ 4%	+ 5%	-2%	+ 5%	+ 3%

Manba: World Travel Trends 2018/2019, P.1.

Dam olish sayohatlari o'rtacha 7 foizlik o'sishni qayd etib, barcha mintaqalardagi o'sishning asosiy omili bo'ldi. Shuningdek, plyaj sayohati ham yuqori o'sishga erishdi va hatto o'sish sur'ati bo'yicha shahar sayohatlarini ortda qoldirdi. Shimoliy Amerikada qisqa muddatli turistik sayohatlar, shu jumladan, shahar tashqarisiga sayohatlar kuchli o'sishni ko'rsatgan bo'lsa, Osiyo-Tinch okeanida bu ko'rsatkich biroz pasayish kuzatildi. Mutaxasislarning fikriga ko'ra, bu yil, 2018 yil bilan taqqoslaganda, prognoz juda ijobiy va kuchli o'zgarishlar davom etadi.

Turistik yo'nalishlarning mintaqalarda rivojlanishidagi nomutanosibliklarga sabab hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, madaniy hamda geografik xususiyatlarining o'ziga xosligidir.

Yevropada chiqish turizmi 2018 yil davomida barqaror o'sish suratlari, 6 foizlik o'sishni ko'rsatdi. Shvetsiya, Rossiya, Italiya, Germaniya, Avstriya ayniqsa Polsha turistik bozorlarining rivojlanishi, hamda Turkiya va Gretsiyada turistik infratuzilmaning rivojlanishi va turistik jozibadorlikning ortishi yevropalik sayyohlar oqimining oshirtishida asosiy

sababchi omillardan bo'ldi [World Travel Trends 2018/2019: 2].

2019 yilga prognozlar ijobiy bo'lib, yuqori o'sish kutilmoqda. Yevropalik turistlar yiliga sayohatlari uchun 495.6 mlrd. doll. (2017 yil) sarf qilishadi. Bu borada germanyaliklar (84 mlrd. doll.) Yevropada birinchi, dunyo bo'yicha esa uchunchi o'rinda turadi. Xitoy (285 mlrd. doll.), AQSH (135 mlrd. doll.), Buyuk Britaniya (63 mlrd. doll.), Fransiya (41 mlrd. doll.) turistlari sayohatlari davomida qiladigan sarf xarajatlari bilan jahonda yetakchi beshlikka kiradi [World Tourism Organization - UNWTO, 2018].

Sayohatchilarning xalqaro sayohatlaridagi eng yuqori o'sish surati Osiyo va Lotin Amerikasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Osiyo sayyohlarning 2018 yilning birinchi sakkiz oyida 8 foizga o'sishi xalqaro sayohatlarning o'sishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Osiyo va Tinch okeani 2018 yilda turizm o'sish sur'ati bo'yicha eng kuchli mintaqa bo'ldi. Tailand, Vetnam, Malayziya, Kambodja va Laos kabi an'anaviy dam olish joylariga turistlar oqimi sezilarli oshgan. Osiyo turistik bozorlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoy chiqish turizmi bo'yicha eng yuqori 13 foiz o'sish bilan mintaqada asosiy o'sish omili bo'lib kelmoqda. Takidlash kerakki, o'tgan yili dunyo bo'ylab turizm o'sishining chorak qismi Xitoyning o'zigagina to'g'ri keldi.

Shimoliy va Lotin Amerika turistlarining xalqaro sayohatlari 2018 yilning dastlabki sakkiz oyida 5 foizga o'sdi. Taqqoslash uchun, Lotin Amerikasi aholisining tashqi sayohati sezilarli darajada kuchli (8 foizdan yuqori) bo'lgan bo'lsa, Shimoliy Amerikaliklarning sayohatlari esa 4 foizga oshgan. AQSh o'tgan yilgi pasayishdan so'ng, bu yil chiqish turizmi 7 foiz ko'paygan bo'lsa, Kanadada bu ko'rsatkich bo'yicha pasayish kuzatildi. Chili sayohatchilari chet elga safarlari 8% ga oshdi. Bu ko'rsatkich Meksikada 2 foiz o'sishni qayd etdi. 2019 yilga mo'ljallangan prognoz Shimoliy va Lotin Amerikasi uchun juda ijobiy bo'lib, turistlar hajmi 8 foizga o'sishi kutilmoqda. Shimoliy Amerikada (asosan AQShda) so'ngi yillarda jadal rivojlanayotgan turistik segmentlardan biri bu kruiz sayohatlaridir. Umuman olganda bu segment jahon turizmida juda ham kam ulushga ega bo'lsada, bu turdagi sayohatlar boshqa sayohat yo'nalishlariga qaraganda, ikki marta yuqori o'sish sur'atiga egaligi bilan muhimdir.

AQSh sayohatchilarning soni bo'yicha jahon turizm bozorining eng katta manbasi hisoblanadi. Undan keyin Xitoy, Buyuk Britaniya va Germaniya o'rin egallaydi. Bu 4 mamlakatlar sayohlari dunyo turistlarining 35 foizni tashkil etadi. AQSh turistlari eng

ko'p tashrif buyuradigan sayohat manzillari Ispaniya, Germaniya va Fransiya hisoblanadi.

Kirish turizmi rivojlangan mintaqalar.

Dunyoda ko'pgina mamlakatlar turistik xizmatlar eksport qilish orqali katta iqtisodiy o'sish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu o'z navbatida turizm sektori bo'yicha xalqaro darajadagi raqobatni shakllantirmoqda (2-jadval).

2-jadval

Turizmning iqtisodiyotdagi ulushi, mintaqalar bo'yicha

Mintaqalar	Turizmning YaIM dagi ulushi,	Turizm sektorida band bo'lgan axoli, mln. kishi	2018 yilda o'tgan yiga nisbatan turizmning YaIM dagi ulushining o'sishi, foizda
Amerika	2,3 trlion doll. AQSh	44,2	2,3
Osiyo-Tinch Okeani	2,9 trlion doll. AQSh	179,6	6,4
Afrika	194 mlrd. doll. AQSh	24,3	5,6
Yevropa	2,2 trlion doll. AQSh	36,7	3,1
Yaqin Sharq	237 mlrd. doll. AQSh	5,4	0,6
Jami	7,8 trlion doll. AQSh	290,2	-

Manba: Travel & Tourism Economic Impact 2019. P.5.

Shimoliy Amerikada turizm YaIM ga qo'shgan hissasi 2018 yilda 2,3 foizga oshdi. AQSh mintaqa turistik faoliyatning asosiy ishtirokchisi bo'lib qolmoqda, Shimoliy Amerika turizm sektorining 83 foizi (va global ulushning 18 foizi) AQSh hissasi to'g'ri kelmoqda. AQShdagi 2,2 foizlik o'sish asosan ichki bozor hissasi to'g'ri keldi, shu bilan birga xorijiy turistlardan keladigan daromad 1 foizga kamaydi. Kiruvchi daromadlarning pasayishi dollarning boshqa valyutalarga nisbatan mustahkamlanishi, shuningdek, xalqaro turistlarning Germaniya va Osiyoning asosiy bozorlariga (Xitoy, Janubga) tashriflarning ortishi bilan bog'liqdir. Xitoydan keladigan xalqaro tashriflar sonining qisqarishi 2018-yilda qisman ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalarining yomonlashishi bilan bog'liq.

Lotin Amerikasida turizm 2018 yilda 2.4 foizga o'sdi, bu mintaqaning umumiy iqtisodiy o'sishidan ikki baravar tezroq demakdir. Turizmning rivojlanishida milliy valyutaning qadrsizlanishi (masalan, Argentina),

vizalarni yengillashtirilishi (masalan, Braziliya) va ba'zi mamlakatlar (masalan, Ekvador) tomonidan xorijiy aviakompaniyalar uchun ochilishi asosiy omillardan bo'ldi. Shuningdek, Ekvador turizmi mintaqada 21.6 foiz o'sish bilan eng tez o'sishga erishdi, turistik salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar (Braziliya, Kolumbiya va Peru)da ham yuqori o'sish kuzatildi. Karib dengizida turizmning 2.1 foizga o'sishi bo'rondan keyingi tiklanish bilan bog'liq.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'rta qatlarning o'sib borishi, o'zaro transport aloqalarining rivojlanishi hamda infratuzilmaning yaxshilanishi mintaqa YaIM dagi turizmning ulushi ortishiga xizmat qilmoqda. 2018-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori o'sish aynan mana shu mintaqaga to'g'ri keldi. Jumladan, Xitoy turizmi 2018-yilda 7.3 foizga o'sib, mintaqa turizmining 51 foizni (dunyo turizmining esa 17 foizni) tashkil qildi. Xitoylik sayohlarning Janubi-sharqiy Osiyoga sayohatlari ortishi bilan mintaqaning yirik turizm iqtisodiyotiga ega bo'lgan Tailanda 6 foizlik o'sish kuzatildi. Hindistonning barcha turizm indikatorlari bo'yicha barqaror o'sish kuzatilmoqda, 2018-yilda turizmning YaIM dagi ulushi 6,7 foizga oshgan. Bunga asosiy sabab uning o'rta toifasi o'sishda davom etishidir. Markaziy Osiyoda turizmning YaIM dagi ulushida o'sish sur'atlari qayd etildi, bunga Qozog'iston va O'zbekistonda faol vizalarni rasmiylashtirish va infratuzilmani takomillashtirish tufayli erishildi.

2018-yilda Afrika YaIM o'rtacha 3,2 foizga o'sgan bo'lsa, undagi turizm sektorining ulushi 5,6 foizlik o'sishga erishdi. Afrikani 2018 yildagi natijalarga ko'ra, (Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan keyin) turizm eng tez rivojlanayotgan ikkinchi mintaqa deyish mumkin. Bu o'sish qisman Shimoliy Afrikaning turistlar uchun xavfsizlikning qayta tiklanishi, shuningdek, sayohatlarni osonlashtirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan izohlash mumkin. Efiopiya nafaqat Afrikada balki dunyo bo'yicha eng tez rivojlanayotgan turistik iqtisodiyoti bilan ajralib turadi. Efiopiya turizmining 2018-yilda 48,6 foizga o'sishida uning mintaqaviy transport markaziga aylanishi va vizani rasmiylashtirish jarayonlarini yengillashtirish siyosati natijasida xalqaro tashrif buyuruvchilarning ortishi asosiy sababchi omil bo'ldi. Shu bilan birga, Misrning sayyohlik sektori 16,5 foizga o'sib, sezilarli darajada barqarorlikka erishdi. Mamlakatda Sharm ash-Shayx kabi muhim yo'nalishlarda xavfsizlikning doimiy yaxshilanishi xalqaro sayyohlarni shimoliy qirg'oqqa qaytarishga yordam bermoqda.

Yevropa turizmining mintaqa YaIM dagi ulushi 3,1 foiz o'sishga erishdi. Takidlash joizki, mintaqa iqtisodiyoti umumiy 2 foiz o'sishiga xalqaro tashrif

buyuruvchilar sarflarining 4,9 foiz o‘shishi bilan bog‘liq. Iqtisodiyoti eng yirik bo‘lgan davlatlar qatorida Turkiya (+ 15,0 foiz), Portugaliya (+ 8,1 foiz) va Gretsiya (+ 6,9 foiz) eng tez o‘shishga erishdilar. Turkiyadagi o‘shish xavfsizlikning yaxshilanishi va valyutasining qadsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu mamlakatni xorijiy mehmonlar uchun yanada jozibador qildi. Shu bilan birga, Portugaliya va Gretsiyada bunday yuqori o‘shish sayohat va turizmning doimiy ravishda hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash strategiyalari bilan bog‘liq. Bularga mavsumiylikni yengish va sayyohlarni kam tashrif buyuradigan hududlarga tarqatish strategiyalari kiradi. Buyuk Britaniyada Breksit bilan bog‘liq salbiy munosabat yevropaliklar orasida qiziqishni pasayishiga olib keldi [European Tourism in 2018].

0.6% lik o‘shish bilan Yaqin Sharq turizm sektori 2018 yildagi eng sekin o‘sayotgan mintaqaga bo‘ldi. Turizmning YaIMda o‘shish surati Saudiya Arabistoni (-1,3 foiz) va Qatarda (-5,1 foiz) pasaygan bo‘lib, unda siyosiy tanglik asosiy sabchi omil bo‘ldi. Shu bilan birga, mintaqada eng yuqori o‘shish Iordaniyada (+5,7 foiz), Kuvayt (+5,3 foiz) va Isroilda (+2,7 foiz) kuzatildi. BAAda Sayohat va turizm 2018 yilda 2.4 foizga o‘sdı.

Turistlarni eng ko‘p qabul qiluvchi mintaqaga Yevropa va Osiyo-Tinch okeani hisoblanadi. Biroq Yevropa va Amerika mamlakatlari turistik faoliyat birmuncha serdaromadli bo‘lib, bu hududga tashrif buyuruvchi turistlardan olinadigan o‘rtacha daromad ancha yuqori hisoblanadi.

Mintaqalarda turistik bozorlarning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lib, turistlar tashrifi hamda ulardan olinadigan daromadlar ham notekis taqsimlangan. Jahon turistlarning 51 foizi Yevropa mintaqasiga to‘g‘ri kelsa, jahon turizmining yalpi daromadidagi ulushi 37 foizni tashkil etadi. Aksincha, AQShga tashrif buyuruvchi turistlar dunyo turistlarning 16 foizni, yalpi daromadning esa 25 foizi to‘g‘ri keladi (1-rasm). Shuningdek Shimoliy Amerika turizm sohasida yaratilgan mahsulot va xizmatlarning 83 foizi va global ulushning 18 foizi aynan AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi.



Jami turistlar: 1 323 million
Jami turizm daromad: 1 225 mlrd. AQSh dollar

1-rasm. Mintaqalarda turistlarni qabul qilishi va ulardan olingan daromadlar.

Manba:UNWTO barometer 2018 – World Tourism Organization (UNWTO), april 2018. <https://www.moodiedavittreport.com/wp-content/uploads/2018/04/wto-1.png>

Turizm rivojlangan mamlakatlar. AQSh va Xitoy dunyoning eng katta turizm iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar bo‘lib, bu dunyo bo‘yicha turizm yalpi ichki mahsulotining 35,2 foizni tashkil etadi, undan keying o‘rinlarni Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya egallaydi. Turizm sektiri bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘ati 2018 yilda eng yuqori bo‘lgan 20 mamlakatga Turkiya (+ 15,0 foiz), Filippin (+ 8,9 foiz), Gonkong (+ 7,5 foiz), Xitoy (+ 7,3 foiz), Hindiston (+6,7 foiz) Tailand (+ 6,0 foiz), Rossiya (+ 4,2 foiz) va Fransiya (+ 4,1 foiz) kiradi. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, keyingi o‘n yillikda ushbu sohada kuchli o‘shish davom etib, Xitoy dunyoning eng katta turizm iqtisodiyoti bo‘yicha AQShni ortda qoldiradi. Shuningdek, Hindistonning YaIM da turizm sektorining ulushi keying o‘n yillikda ikki baravar ko‘payib, 2018 yilda turizm sektirida yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘ati bo‘yicha egallagan sakkizinchi pog‘onasidan 2029 yilga qadar uchinchi o‘ringa ko‘tarilishi kutulmoqda.

3-jadval

Turizm iqtisodiyoti eng rivojlangan 20 ta mamlakat, 2018 yil

O‘rni	Mamlakatlar	Turizmning YaIM dagi ulushi		2017-2018 yy. da turizmning o‘shishi, foizda	Yalpi turizm olingan daromad	
		mlrd. Doll. AQSh	Foizda		Ichki turizmning ulushi, foizda	Kirish turizmining ulushi, foizda
1	AQSh	1 595,00	7,80	2,20	81,20	18,80

2	Xitoy	1 509,00	11,00	7,30	85,80	14,20
3	Yaponiya	368,00	7,40	3,60	82,50	17,50
4	Germaniya	345,00	8,60	1,20	85,20	14,80
5	Buyuk Britaniya	311,00	11,00	1,00	84,40	15,60
6	Italiya	275,00	13,20	3,20	76,20	23,80
7	Fransiya	266,00	9,50	4,10	65,70	34,30
8	Hindiston	247,00	9,20	6,70	87,20	12,80
9	Ispaniya	211,00	14,60	2,40	44,80	55,20
10	Meksika	209,00	17,20	2,40	85,20	14,80
11	Avstraliya	154,00	10,80	3,20	76,10	23,90
12	Braziliya	153,00	8,10	3,10	93,80	6,20
13	Kanada	111,00	6,40	2,90	76,30	23,70
14	Tayland	110,00	21,60	6,00	19,80	80,20
15	Turkiya	96,00	12,10	15,00	38,60	61,40
16	Filippin	81,50	24,70	8,90	86,70	13,30
17	Rossiya	78,60	4,80	4,20	69,90	30,10
18	Avstriya	70,40	15,40	3,60	53,50	46,50
19	Saudiya Arabistoni	65,20	9,00	-1,30	54,80	45,20
20	Gong Kong	63,30	17,40	7,50	22,60	77,40

Manba: Travel & Tourism Economic Impact 2019.

P.6.

Ichki turizm - bu yirik turistik iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Aslida, dunyoning beshta yirik turizm iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda (AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya) ichki turizmdan olinadigan daromad turizmdan keladigan yalpi daromadlarning kamida 80 foizini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarning aksariyat qismida ichki turizm o'sib borishiga katta miqdordagi o'rta sinf aholisining daromadlarining ko'payishi, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, yangi turistik manzillarning hukumatlar tashabbuslari orqali rivojlantirilishi, transport infratuzilmasi va turli ichki mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yaxshilashi kabi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ispaniya, Turkiya va Tailand kabi mamlakatlarda ham turizm iqtisodiyotda salmoqli ulushga ega bo'lib, turizmdan keladigan daromadlar asosan chet ellik turistlar hisobiga to'g'ri keladi. Xususan, Tailandda xarajatlarning 80,2 foizi xalqaro tashrif buyuruvchilarga to'g'ri keladi (3-jadval).

Turizm YaIM ga qo'shayotgan hissasi bo'yicha dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlari orasida rivojlanayotgan davlatlar ustunlik qiladi. Bu sektorning yana bir o'ziga hos jihati shundaki, daromadlarni butun dunyo bo'ylab qayta taqsimlash imkoniyatini beradi. Shujumlardan, 2018 yilda turizmning YaIM

dagi ulushining o'sishi bo'yicha Efiopiya (+ 48,6 foiz), Ekvador (+ 21,6 foiz), Sent-Kits va Nevis (+ 16,8 foiz), Misr (+ 16,5 foiz) va Turkiya (+ 15,0 foiz) dunyoda etakchilik qilishdi (2-rasm).

Bu mamlakatlarda turistlar oqimining kengayishi hamda turizm sektoridan olinadigan daromadlarning tez suratlar bilan o'sib borishiga asosiy sabab hukumat tomonidan turizmni qo'llab quvatlash maqsadida qabul qilinayotgan qarorlari hamda quyidagi omillar ijobiy ta'sir o'tkazmoqda:

– vizalarni rasmiylash jarayonlarini soddalashtirish (masalan, Efiopiya, O'zbekiston);

– valyutaning qadrsizlanishi (masalan, Turkiya, Misr);

– yaxshilangan aloqa va infratuzilma (masalan, Efiopiya, Ekvador, Ruanda, O'zbekiston, Makao, Shri-Lanka, Uganda, Gruziya, Kambodja, Filippin);


– xavfsizlikning qayta tiklanishi (masalan, Misr, Turkiya, Tunis);

– tabiiy ofatlar hafidan qutilish (Sent-Kits va Nevis, San-Tome, Sent-Vinsent va Grenadin, Gvineya);

– turizm taklifini O'zgartirish va rivojlanirish (masalan, Makao) va b.

Turistlar shaharlararo sayohati davomida boshqa turistik yo'nalishlariga qaraganda ko'p pul sarflashadi. Bitta turistning bu sayohati davomidagi bir kunlik xarajati o'rtacha 170 yevroni tashkil etadi. Shuningdek, 70% sayohatchilar shaharlararo sayohati davomida havo transportidan hamda mehmonxona xizmatlaridan foydalanishadi.

Bu sayohat turi yuqori darajadagi turistik infrastrukturani talab qilishi bois boshqa turistik yo'nalishlardan farq qiladi.



2-rasm. Turizmdan olinayotgan daromadi eng tez rivojlanayotgan 20 ta mamlakatlar, 2017-2018 yy. Foizda

Manba: Travel & Tourism Economic Impact 2019. P.6.

Shuning uchun aksariyat sayohat qiluvchilar (shaharlararo sayohatchilarning 60%) Yevropa qitasini avzal ko'rishadi.

Shaharlararo sayohatchilarni asosan yosh va o'rta yoshlar (o'rtacha 41 yosh) hamda yuqori daromadga ega, ziyoli kishilar tashkil etadi. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari: diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish, shaharda atmosferadan zavqlanish, xarid qilish, yaxshi ovqat va ichimliklar va boshqalardir. So'nggi yillarda bu sayohat turi Osiyo, Tinch okeani va Janubiy Amerikada ham rivojlanib bormoqda. Osiyodaga o'sish ayniqsa xitoy, koreys va yapon shaharlararo sayohatni tashkil etuvchi turistlar bilan bog'liq.

Yevropaliklarning shaharlarga sayohati 2007 va 2017 yillar mobaynida ikki baravarga ko'paygan bo'lsa, aksincha Shimoliy Amerikada shahar tashqarisiga sayohatlar so'nggi o'n yilda uch baravar ko'paydi. Bu holatni mintaqalardagi turmush tarzining turlichaligi bilan izohlash mumkin [World Travel Trends 2018/2019: 3].

Shunday yuqori O'sishga ega turistik segmentlardan yana biri bu halol turizmdir. Musulmonlar dunyodagi eng tez rivojlanayotgan diniy guruhdir va sotib olish qobiliyati yuqori bo'lgan o'rta sinf kengaymoqda. Shuningdek, musulmonlar orasida umumiy mushtarak qadriyatlar mavjud bo'lib, ular o'zlarining ehtiyojlarini qondiradigan boshqa jamoalarnikidan ancha kuchliroqdir.

2030 yilga kelib musulmonlar dunyo aholisining 25% ni tashkil qilishi hamda jahonda eng tez o'sayotgan diniy jamoaga aylanishi kutilmoqda. Ba'zi musulmon mamlakatlari bozorlarida xarid qobiliyati o'sib borishi va yangi xaridorlar sonining ortishi tufayli moddiy jihatdan farovon bo'lgan o'rta sinf shakllanmoqda. Buning natijasida xalqaro turizmga musulmon sayyohlar ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

Musulmon sayohlarning aksaryati asosiy aholisi musulmon bo'lgan mamlakatlarga, jumaldan ularning 60 foiz Osiyoga (Yaqin Sharq bilan birga) sayohat qilishadi. o'z navbatida Germaniya musulmon sayohatchilar uchun Yevropadagi eng ommalashgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ularning sayohat yo'nalishidan eng avvalo shaharlararo sayohat bo'lsa, keying o'rinlarda dam olish hamda tijorat sayohatlari turadi. Barcha sayohatlarning 10 foizi diniy maqsadlar yoki ziyorat qilish uchun amalga oshiriladi.

Musulmon sayohatchilarning soni yuqori darajada o'sib borayotgan bo'lsada, lekin ayol sayohatchilarning o'rtacha ulushi oshmagan. Musulmon sayohatchilar ancha yosh bo'lib, 75 foizni 25 yoshdan 44 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ularning aksaryatini Oliy

ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etadi [Global Muslim Travel Index 2018].

Musulmon sayohatchilarning faoliyati: Shaharlarni ziyorat qilish yoki sayohatlar paytida xaridlarni amalga oshirish, diqqatga sazovor joylar va muzeylarga ko'proq e'tibor berishdir.

Musulmon sayohatchilari uchun Halol turizm muhim ahamiyat kasb etadi. Bu to'g'risida Fazal Baxardin, CrescentRating boshqaruvchisi - halol turizm bo'yicha dunyoning yetakchi mutaxassisi - "Musulmonlarning farqi millatlaridan qat'iy nazar, boshqa jamoalarnikidan ko'ra kuchliroq bo'lgan mushtarak qadriyatlardadir. " Halol tushunchasi an'anaviy islom qonunlariga mos keladigan barcha narsalarga tegishlidir. Turizm sohasida esa, ma'lum bir e'tiqodga asoslangan ehtiyojlarni, masalan, halol qoidalarga muvofiq ovqat tayyorlash, Ramazon oyida ovqatlanish vaqtini moslashtirish, masjidlarni ochish, erkaklar va ayollarni alohida basseymlar bilan ta'minlash va musulmonlarga mo'ljallangan ko'ngilochar dasturlarni taklif qilish tushuniladi [World Travel Trends 2018/2019: 4].

O'zbekistonda turizm. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri bo'lgan turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shuningdek, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm soxasini rivojlantirish Konsepsiyasida ko'zda tutilgan quydagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan:

- turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;
- transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashki yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;
- turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm maxsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;
- respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sub'yektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;
- O'zbekiston Respublikasi turizm maxsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

- turizm tarmog'ini uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish[2].

Shuningdek, turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- turistik biznes sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yorlar va standartlarni joriy qilish;

- ushbu yo'nalishda milliy me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar va normalarga muvofiqlashtirish, shuningdek, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iqtisodiy zaxiralarni ko'paytirish uchun samarali foydalanishni ta'minlash vazifasi qo'yildi;

- turistlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda respublikaning barcha hududlarida turistik infratuzilma rivojlantirish;

- turistik infratuzilmani xalqaro me'yorlarga muvofiq rivojlantirish, turoperator va boshqa turizm sub'ektlari sonini 860 dan 1676 donagacha, turar joylar bilan ta'minlash muassasalari sonini ko'paytirish hisobiga rivojlantirish ko'zda tutilgan.


2019 yil 5 yanvar kuni Turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora-tadbirlar rejasini to'g'risidagi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoni hamda tegishli qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, 2019 yilning 1 fevralidan O'zbekistonda yana 45 davlat fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga vizasiz rejim joriy qilindi. 2018 yilning fevralida – Isroil, Indoneziya, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz tartibni joriy etish haqidagi farmonni imzolagan edi, keyinchalik ro'yxatga Tojikiston, Fransiya, Germaniya qo'shildi.

5 yilda 278 ta namunaviy mehmonxona qurish rejalashtirilmoqda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ana shunday tashabbus bilan chiqdi. Osonlashtirilgan sxema bo'yicha qurilish uchun yer, shuningdek, imtiyozli kreditlar berish orqali xususiy investorlarni loyihaga jalb etish taklif qilindi va 2018-2020 yillarda davlat-xususiy sheriklik shartlarida 100 ta, 2021–2022 yillarda esa 178 ta obyektни barpo etish taklif etilmoqda [16].

Oxirgi yillarda O'zbekistonda turizm sohasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, sayyohlar oqimining oshishi, yangi turistik mahsulotlar, yangicha yo'nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'y-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish shular jumlasidandir. Natijada, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining

yakuniy hisobotiga ko'ra, 2018 yilda O'zbekistonga 5,3 mln nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2017 yilda ularning soni 2,69 mln nafarni tashkil etgan, ya'ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o'sishni ko'rsatib, ikki baravarga oshgan. 2016 yilda esa ularning soni 2,07 million nafarni tashkil etgan [17].

Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekistonga sayyohlarni jalb etadigan yetakchi platforma bo'lib qolmoqda. Eng ko'p tashrif buyuruvchilarni 31 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan guruh tashkil etadi. O'zbekistonga kelgan chet elliklarning 86,1 foizini ushbu mintaqadan tashrif buyurganlar tashkil etdi.



3-rasm. O'zbekistonga kelgan chet elliklarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, foizda

Manba: Tourism in Uzbekistan-2018.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mehmonlarning aksariyati uchun O'zbekistonga kelish maqsadi - ularning tanishlari va qarindoshlariga tashrif buyurish. Bu tashrif buyuruvchilar umumiy sonining 88,1 foizini tashkil etdi. Ikkinchi yirik segment 8,6 foiz tashkil etdi – bu O'zbekistonga ta'til, hordiq va dam olish (sayohat) uchun kelganlar. Keyingi o'rinda biznes va kasbga oid maqsadlari bilan O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar guruhi (1,1 foiz)ni, Dori-darmon va sog'liqni yaxshilash uchun muolajalar va savdo (tijorat) uchun tashrif buyuruvchilarning 1 foizga to'g'ri keladi. Har bir tashrifning o'rtacha davomiyligi 6,9 kechani, aksariyat sayyohlarning tashrif buyurish vaqti (79 foiz) 1 dan 9 kechagacha, 19,8 foiz esa 10 dan 39 kechani tashkil etadi. Sayyohlarning 2 foiz dan kamrog'i mamlakatda 40 kechadan ko'proq bo'lishadi.

2025 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning sonini 2025 yilda 9 089.3 ming kishiga yetkazish (2018 yilda 5 300.0 ming kishini tashkil etgan), turistik xizmatlar eksportining hajmini 2018 yilgi 1 040.9 million AQSh dollardan 2025 yilda 2 232.8 million AQSh dollariga yetkazish ko'zda tutilgan [Tourism in Uzbekistan 2018].

Olingan natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quydagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston uchun ham jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasiga alohida e'tibor qaratish keng imkoniyatlarini yaratadi. Keyingi o'n yillikda har to'rtta yangi ish joyidan bittasi turizm sektori tomonidan yaratilishini inobatga olsak, turizm O'zbekistonda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratib ishsilik darajasini pasaytirishga kata hissa qo'shishi mumkin. Bu o'z navbatida axolining yuqori daromad manbayi hamdir. Ayniqsa qisqa muddatli sayohatlar, shahar turizmi, gastronomik turizm va ziyorat turizmini rivojlantirish o'zbek turizmining asosi deyishimiz mumkin.

Ikkinchidan, jahon turizmi uchun O'zbekiston geografik jihatdan ancha qulay joylashgan. Buyuk ipak yo'li chorrahasi hisoblangan markaziy Osiyo bugungi kunda turizm rivojlangan Yevropa Yaqin sharq, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqalarining markazidir. Bu omil turistlar uchun qisqa mudatli tranzit sayohatlarini amalga oshirishlari mumkin. Milliy aviakompaniyamiz parkidan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, muntazam va charter reyslarining geografiasini yanada kengaytirish uchun xorijiy aviakompaniyalarni jalb qilish kerak. Shuningdek, transportning ichki va tashqi turlarini hisobga olgan holda sayyohlik oqimini ko'paytirish va diversifikatsiya qilish uchun yagona, xavfsiz va innovatsion transport logistikasini rivojlantirish lozim. Shu jumladan, O'zbekiston xalqaro koridorlarini Yevropa, Janubi-sharqiy Osiyo mlakatlari hamda Yaqin Sharq bilan ham bog'lash orqali turistlarning keng oqimini jalb qilish mumkin.

Uchinchidan, O'zbekiston tarixiy madaniy obidalarga boy bo'lgan mamlakat hisoblanadi. 7200 dan ortiq madaniy yodgorliklardan 200 ga yaqini YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Bu o'zbek turizmiga o'zgacha jozibadorlik beradi. Madaniy meros ob'ektlari, muzeylar, teatrlar, san'at galereyalari faoliyati samaradorligini sayyohlarni axborot-ma'lumot bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratish, aqlli turizm texnologiyalarini joriy etish, turniket tizimi va videokuzatuv tizimini o'rnatish orqali oshirish lozim. Albatta tarixiy shahar bilan bir qatorda zamonaviy shaharlarning bunyod etilishi turistlarning qamrovini kengaytiradi.

To'rtinchidan, turistlar oqimining ko'payishi bilan turizm industryasi ham rivojlanib boradi va yangi turistik xizmatlar paydo bo'ladi. Turistik xizmatlarning ko'payishi turistlar talabini to'laroq qondirib turizmdan keladigan daromadni oshirishga xizmat qiladi. Hozirda turistik faoliyat va joylashtirish xizmatlar eksporti

hajmi yuqori darajada emas (2018 yilda 1040,9 mln. AQSH doll. ni tashkil etadi) [Safarov B., 2017]. Shaharlar infrastrukturasi rivojlantirish, turli toifadagi mehmonxonalar qurish, shaharlararo transport qatnovini ko'paytirish, restoran va ovqatlanish joylari xizmatlarini yaxshilash, turistlarning xaridlari uchun talabgor mahsulot assortimentlarini ishlab chiqarish, ko'ngilochar kempinglarni ko'paytirish shular jumlasidan. Turizm va transport infratuzilmasiga, shuningdek, dunyoga mashhur mehmonxona biznes zanjirlariga, shu jumladan imtiyozlarni taqdim etish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kerak.

Beshinchidan, zamonaviy va brendli mehmonxonalar, yotoqxonalar, oilaviy mehmonxonalar kabi byudjetli turar joylar, shuningdek, AirB & B tizimidan foydalangan holda kvartiralarini ijaraga berish mexanizmlarini joriy etishni jadallashtirish kerak [18].

Oltinchidan, O'zbekiston tabiati betakrorligi bilan ham boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Shu boisdan, bu imkoniyatdan samarali foydalangan holda ekoturizm infratuzilmasini yaxshilab, uning iqtisodiy rentabelligini oshirish kerak.

Yettinchidan, O'zbekiston islom olamida o'z tarixi bilan yuqori mavqeyga ega. Musulmon sayyohlarning Imom Buxoriy at-Termiziy, Moturudiy ziyoratgohlariga tashrif buyurish uchun istaklari yuqori. Shuningdek, musulmon turistik bozori yildan yilga kengayib, talab ham ortib bormoqda. Musulmon mamlakatlari turistlarini jalb qilish va halol turizmni rivojlantirish orqali katta turistik oqimni yo'lga qo'yish mumkin. Shuning uchun ziyorat turizmi infrastrukturasi shakllantirish, ziyoratgohlar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda ziyoratchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. –T.:2.12.2016y.
2. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. <http://lex.uz/docs/-3107036>
3. “O'zbekiston Respublikasini turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5611, 05.01.2019y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, 22.12.2017y. Xalq so'zi // 2017 yil.
5. Ruziyev Sh.R. O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini

- indikativ boshqarish metodikasi// Iqtisod va moliya ilmiy-amaliy jurnal. T.:2018 yil. №11(119). 30-bet.v
6. Safarov B. Turistik xizmatlar bozori istiqbolini aniqlashning innovatsion usullari// Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. Toshkent sh., 2017 yil. №4. 47-bet.
 7. Tuxliev I.S., Qudratov G'.H., Pardaev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.: — IQTISOD-MOLIYA 2010 y.
 8. Xudoyorov A.A. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning o'ziga xos tashkiliy iqtisodiy jihatlari// Iqtisod va moliya ilmiy-amaliy jurnal. T.: 2019 yil. №8(128). 9-bet.
 9. European Tourism in 2018: Trends & Prospects (Q4/2018).
 10. Global Muslim Travel Index 2018. Mastercard-Crescentrating 2018.
 11. Travel & Tourism Economic Impact 2019.
 12. Travel & Tourism Economic Impact 2018 Uzbekistan// World Travel & Tourism Council 2018 march.
 13. Tourism in Uzbekistan-2018.
 14. UNWTO barometer 2018 – World Tourism Organization (UNWTO), april 2018.<https://www.moodiedavittreport.com/wp-content/uploads/2018/04/wto-1.png>
 15. World Travel Trends 2018/2019.
 16. O'zbekistonda 2020 yilga qadar yana 100 ta mehmonxona quriladi <http://www.xs.uz/uz/post/ozbekistonda-2020-jilga-qadar-yana-100-ta-mehmonkhona-quriladi>
 17. O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va yaqin kelajak uchun prognozlar. <https://kun.uz/news/2019/01/30/ozbekistonda-turizm-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi-va-yaqin-kelajak-uchun-prognozlar>
 18. Vitse-premer Uzbekistana rasskazal o problemax v turizme i sposobax ix resheniya. <https://news.mail.ru/politics/35274835/?frommail=1><https://news.mail.ru/politics/35274835/?frommail=1>

